

SO‘ZLAR QANDAY BOG‘LANADI?

Xorazm viloyati Hazorasp tumani

5-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi

10-sinf o‘quvchisi Aminova Charosxon

Annotatsiya: Alisher Navoiy aytganidek: “ Til – shuncha sharafi bilan nutqning quroolidir. Agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa, tilning ofatidir”. Tilning boyligi va so‘zlarning to‘g‘ri bog‘lanishi har qanday tilda nutqning mazmuni va sifatini belgilaydi. Ammo so‘zlarning o‘zaro qanday bog‘lanishini tushunmasdan, to‘g‘ri va aniq gap tuzish qiyin. So‘zlar qanday bog‘lanadi va bu bog‘lanish qoidalari qanday tashkil etiladi? Ushbu maqolada shu savollarga atroflicha javob beriladi.

Kalit so‘zlar: morfologiya, sintaksis, sintaktik bog‘lanish, so‘z birikmasi, so‘z qo‘shilmasi.

Til – bu insonlar o‘rtasidagi asosiy muloqot vositasi bo‘lib, u orqali fikrlar, his-tuyg‘ular va ma’lumotlar uzatiladi. Har bir tilda so‘zlar o‘zaro bog‘lanish orqali nutqning mazmunini hosil qiladi. “So‘zlar qanday bog‘lanadi?” degan savol esa tilshunoslikda juda muhim mavzu hisoblanadi. Shuningdek, so‘zlar tilimizning asosiy elementlari bo‘lib, ular ma’no ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Har bir so‘z ma’lum ma’no anglatadi va so‘zlar o‘rtasida bog‘lanishlar mavjud bo‘lib, ular ma’lum bir tuzilish hosil qiladi. Vaholanki, so‘zlarning to‘g‘ri qo‘llanishi tilning samarali va aniq ishlashiga asos bo‘ladi. Har bir so‘zning o‘ziga xos vazifasi va grammatik funksiyasi bor. Ular bir-biriga bog‘lanish orqali gap, ibora va matn shaklida ma’no anglatadi. So‘zlarning o‘zaro birikishi tilning ikki asosiy qatlami – morfologik va sintaktik bog‘lanish orqali amalga oshadi. Keling, ikkita asosiy qatlamni ko‘rib chiqamiz.

Morfologiya so‘zi grekchadan olingan bo‘lib, so‘zning grammatik shakllari haqidagi ta’limotdir[Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 2006,88]. Morfologik bog‘lanish xilma-xil qo‘shimchalar vositasida o‘zaro bog‘lanish jarayoni hisoblanib, tilning

tuzilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki affikslar so‘zning ma’nosini va gapdagi ma’noni o‘zgartirishi mumkin. Morfologik bog‘lanishlar so‘zdagi morfemalarning bir-biriga munosabatini bildiradi. So‘zning ma’noli qismlari esa morfemalar deyiladi [Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 2006, 67]. Morfema – bu so‘zning ma’no yoki grammatik vazifaga ega bo‘lgan eng kichik bo‘lagi. So‘z asos va qo‘shimchalardan tashkil topadi. Masalan, “kitoblarimizda” so‘zini olsak, “kitob” asos, “-lar”, “-imiz”, “-da” grammatik qo‘shimchalaridir (ko‘plik, egalik va o‘rin-payt kelishigi). Bu kabi morfemalar so‘zlarni morfologik bog‘lanish orqali birlashtirib, ularga yangi grammatik va semantik ma’nolar yuklaydi.

Sintaktik bog‘lanishlar esa morfologik tuzilishga asoslanadi. Sintaksis so‘zlarning gapda qanday joylashishini va ularning o‘rtasidagi aloqalarni belgilaydi. Ayrim hollarda bu ikki sohani, ya’ni morfologiya va sintaksisni bir-biridan ajratish ham qiyin bo‘ladi. Sintaktik bog‘lanishlar so‘zlar orasidagi muloqotni tashkil etadi. Har bir so‘z gapdagi o‘z o‘rnini egallaydi va ularning tartibi va tuzilishi gapning ma’nosini shakllantiradi. Masalan, “Men kitobni o‘qidim” jumlasida “Men” subyekt, “kitobni” obyekt, “o‘qidim” esa fe’l sifatida ishlaydi va har bir so‘z o‘z o‘rnida ma’no anglatadi. Sintaktik birliklarning o‘zaro bog‘lanishi va tashkil topishi sintaktik aloqa sintaktik birliklarni tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro bog‘lanish usulidir. So‘zlarning ma’no va grammatik jihatdan birikishi sintaktik konstruksiyalarni hosil qiladi. Ularning shakllanishida intonatsiya, ko‘makchilar, kelishiklar va egalik qo‘shimchalari muhim rol o‘ynaydi. Sintaktik hodisa esa bu birliklarning bir-biri bilan bog‘lanish jarayonini ifodalaydi. Sintaktik munosabat bu jarayonni ifodalovchi sinonim atama bo‘lib, sintaksisning keng tahlili uchun asos bo‘ladi. Shuni ta’kidlash lozimki, so‘z birikmalari ham sintaktik munosabatlarning asosiy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. So‘z birikmasi grammatik tuzilish va ma’no aniqligini ta’minlashning muhim vositasidir. Masalan,



Bog‘da chiroyli gullar ochilgan

Gapda so‘zlarning bog‘lanishi 3 xil bo‘ladi: moslashuvli birikma, bitishuvli birikma, boshqaruvli birikma. Yuqoridagi gapda 3 ta bog‘lanish, ya’ni tobe bog‘lanishlar, 2 tasi so‘z birikmasi, 1 tasi gap: Gullar ochilgan tobe bog‘lanish, lekin ega, kesim bo‘lgani uchun gap hisoblanadi. Chiroyli gullar – tobe bog‘lanish, bog‘da ochilgan – tobe bog‘lanish bo‘lib so‘z birikmasi hosil qilgan. So‘zlar xuddi shunday bog‘lanib so‘z birikmasini hamda gapni hosil qiladi.

So‘zlar qanday bog‘lanishini tushunish nafaqat grammatikani, balki tilning umumiyligi tuzilishini ham anglashni ham ta’minlaydi. So‘zlarning morfologik va sintaktik bog‘lanishi tilning asosiy tizimlaridan biri bo‘lib, ular birgalikda gapni izchil, mantiqiy va tushunarli qiladi. Har bir bog‘lanish usuli o‘z vazifasiga ega. Morfologik bog‘lanish so‘zning shakli va grammatik vazifasini belgilasa, sintaktik bog‘lanish gapning strukturaviy shaklini ta’minlaydi. Har ikkala bog‘lanish tili va uning funksiyalarini tushunish uchun muhimdir. Ular orqali tilning ishlash mexanizmini yaxshiroq anglash mumkin. Yana bir muhim jihat shundaki, bu bog‘lanishlar bir-birini to‘ldiradi va ularning har biri tilning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalashda katta rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Alisher Navoiy hikmatlari”, Ziyoruz portal, 2013.
2. X.Muhiddinova, D.Xudayberganova, I.Umurov va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T:”O‘qituvchi”, 2006,208 b.
3. Kulimbetova, M. R. (2022). Sintaksis haqida tushuncha. Xalqaro ilmiy jurnal “Nauchny impuls”, 5(100), Qism 1.
4. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv-uslubiy majmua. Urganch davlat universiteti, “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasи, Urganch, 2024.